

OLIMNING USLUBI (ADABIYOTSHUNOS B.QOSIMOV MISOLIDA)

Bektasheva Gulbahor Rayimjonovna

KUAF O'zbek va rus filologiyasi kafedrası

katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

Annotatsiya: Ushbu tezisdá professor B.Qosimovning uslubi, adabiyotshunos sifatida ilmiy maktabga asos solgani, jadidlar merosini o'rganishni asosiy maqsad qilgani haqidagi fikrlar berilgan. Olim uslubi haqidagi qarashlar talqin etiladi.

Kalit so'zlar: uslub, ilmiy-nazariy qarash, ilmiy maktab, tamoyil, g'oyaviy-estetik paradigma

Annotation: This thesis presents views on Professor B. Qosimov's style, his role as a literary scholar in founding a scientific school, and his main goal of studying the legacy of the Jadids. It also interprets the scholar's perspectives on academic style.

Keywords: style, scientific-theoretical approach, scientific school, principle, ideological-aesthetic paradigm.

Аннотация: В данной тезисе представлены взгляды на стиль профессора Б. Касымова, его роль как литературоведа в создании научной школы, а также его основная цель — изучение наследия джадидов. Также интерпретируются представления учёного о научном стиле.

Ключевые слова: стиль, научно-теоретический подход, научная школа, принцип, идейно-эстетическая парадигма.

“Uslub badiiy shaklning unsuri emas, balki unga xos xususiyatdir. Uslub asardagi shakl unsurlarining o'z holicha emas, balki muayyan qonuniyat asosida yaxlitlikka birlashishini ta'minlaydi, har bir unsurning butun tarkibidagi mohiyati va funksiyasini belgilaydi”. Demak, uslub adabiyotshunos D.Quronovning ta'kidicha, faqat badiiy asargagina xos emas. Adabiyotshunoslik ilmida badiiy asarda yozuvchi uslubi bilan bir qatorda ijodkor olim uslubi ham alohida qayd etiladi. Adabiyotshunoslikka doir ko'pchilik ilmiy manbalarda uslub deganda, badiiy shaklning muayyan bir mazmunni ma'lum original yo'sinda ifodalashga xizmat qiladigan unsurlar birligi tushunilishi keng yoyilib bormoqda. L.I.Timofeyev, V.A.Kovalyov, V.Y.Xalizev singari olimlar esa uslubning o'z ichiga nafaqat shaklga doir sirtqi jihatlar, balki badiiy asarning mavzu, g'oya, xarakterlar tasviri, til singari barcha qirralarini butunisicha qamrab oladigan ko'lamdor tushuncha ekanini qayd etadilar.

Professor Begali Qosimov o'z uslubiga ega olim sifatida ilmiy-nazariy qarashlarini bayon etar ekan, o'zining ilmiy maktabiga asos soladi. Ilmiy maktab termini ikki xil: tor va keng ma'noda qo'llanadi. Keng ma'noda ishlatilganda butun bir bo'lim, yo'nalish, sohaga oid tushuncha sifatida izohlansa, tor ma'noda biror olim asos solgan ilmiy yo'nalish, fan sohasi, ya'ni maktab nazarda tutiladi. Masalan, jadid adabiyotshunosligi keng ma'noda ilmiy maktab bo'lsa, “B.Qosimov boshlab bergan ilmiy maktab” deyilganda tor ma'noda adabiyotshunos olim tomonidan shakllantirilgan yo'nalishlar sifatida o'rganiladi. Begali Qosimov jadidchilik davrining ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy, adabiy hayotini chuqur o'rganib, o'zining teran ilmiy tadqiqotlari bilan jadid adabiyotshunosligida o'ziga xos ilmiy maktab yaratdi. Jadidchilik davri adabiyotini o'rganish, tahlil va targ'ib qilish olim ilmiy faoliyatining eng salmoqli qismini tashkil etdi. Munaqqidning ilmiy faoliyati qamrovi – juda keng. Nuktadon olimning ilmiy laboratoriyasini o'rganish jarayonida jadid adabiyotiga oid tadqiq va tahlillardagi o'ziga xos yondashuvlar, tadqiqot usullari va mezonlaridagi betakrorlik ko'zga yaqqol tashlandi.

Adabiyotshunoslik ilmining keyingi davrdagi taraqqiyot bosqichida olim va tanqidchilarning o'z uslubi, o'ziga xos yo'nalishi farqlana boshladiki, jadid adabiyotini atroflicha tadqiq etgan B.Qosimov ham o'z yo'li va uslubiy tamoyillari bilan boshqalardan ajralib turadi. Olim ham tanqidchi, ham manbashunos, ham adabiyotshunos sifatida bir qator betakror jihatlarga ega. Adabiyotshunos Q.Yo'ldosh va M. Yo'ldoshlarning "Badiiy tahlil asoslari" kitobida: "Uslub baholash imkonini beradigan estetik hodisa o'laroq, o'zida ham shakl, ham mazmunga doir jihatlarni mujassamlashtirgan bo'ladi. Ya'ni biror asarning o'z uslubiga egaligi o'z-o'zidan bu badiiy yaratqning estetik qiymati borligini bildiradi", - deyiladi. Chindan ham Begali Qosimov yaratgan tadqiqotlar ilmiy-estetik hodisa sifatida alohida qiymatga ega. Olimning tadqiqotlari jadid adabiyotini to'la anglash va tushunish uchun muhim manba ekanligi bilan ahamiyat kasb etadi.

Alohida muallifning adabiy-estetik qarashlari evolyutsiyasi muammosi va uning rivojlanish bosqichlari adabiy jarayonning umumiy yo'nalishi bilan chambarchas bog'liqligini tekshirish tadqiqotchilar uchun muhim masalalardan biridir. Har qanday yozma faoliyatga ijodiy va estetik motivlar bilan bir qatorda ekstralingvistik omillar ham turtki bo'ladi. Ular psixologik, kundalik va biografik tajribalar va albatta, muallif ijodining madaniy va tarixiy sharoitlarini o'z ichiga oladi. Hech shubha yo'qki, tarixiy burilish davridagi voqealar doimo insonning dunyoqarashini, asosiy g'oyaviy-badiiy yo'nalishlarini, estetik ong harakati dinamikasini belgilab beradi. Har bir davr ma'naviy izlanishlarining o'ziga xos g'oyaviy-estetik paradigmasining mavjudligi, jamiyat inqirozi yoki taraqqiyoti va ijtimoiy ongdagi siljishlar, albatta, adabiy jarayonda o'z izini qoldirgan.

O'tgan asrning 50-yillar oxiri 60-yillar boshidan boshlangan "iliqlik" davri adabiyotga ham o'z ijobiy ta'sirini o'tkazdi. 70-yillarda umumiy dunyoqarash ijobiy tomonga o'zgarib, jadidchilik davri va jadidlar faoliyati sekin-asta tilga olina boshladi. 80-yillarning ikkinchi yarmidan bu jarayon bir qadar tezlashdi. B.Qosimov, Sh.Turdiyev, A.Aliyev kabi adabiyotshunoslar Turkiston jadidlari faoliyatini jiddiy va keng qamrovda tadqiq eta boshladilar.

Xulosa qilganda, ilmiy faoliyatining asosini "milliy uyg'onish davri adabiyoti"ni har tomonlama chuqur tahlil qilishni maqsad qilgan yetuk olim B.Qosimov jadidlar merosini asl manbalar va arxiv materiallari asosida tadqiq qilganligi e'tiborga molik. Uning bu sohada olib borgan tinimsiz izlanishlari muhim ilmiy qiymatga ega bo'lib, "B.Qosimov ulkan va nihoyatda ziddiyatli kechgan XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy harakatchilikni milliy istiqbol mafkurasi g'oyalari asosida tadqiq va talqin etadiki, bu tamoyil, ayni paytda, o'zining tahlil prinsiplarini shakllantirayotgan o'zbek adabiy tanqidchiligi faoliyatida jiddiy yangilanishlarga turtki berdi".

Adabiyotlar

1. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Академнашр, 2013.— Б. 341.
2. Есин А. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – Москва: Флинта, Наука, 2000. — С. 179.
3. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – Москва: Учпедгиз, 1959. — С 369; Ковалев В. А. Многообразие стилей в советской литературе. – Москва-Ленинград: Наука, 1965. — С. 22; Хализев В.Е.Теория литературы. –Москва: Высшая школа, 1999. — С. 162.
4. Йўлдошев Қ., Йўлдош М. Бадий таҳлил асослари. –Тошкент: Камалак, 2016. – Б. 36.

5. Турдиев Ш. Меросимизнинг бир саҳифаси (1989). Миёнбузрук Солиҳов ҳаёти ва ижодининг ўрганилишига доир тадқиқот. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan.merosimizning-bir-sahifasi-1989/11>; Алиев А. Адабий мерос ва замонавийлик. – Тошкент, 1983;
6. Назаров Б. ва бошқ./ Ўзбек адабий танқидчилиги тарихи. – Тошкент: Чўлпон, 2012. – Б. 240.